


2019-yil 1 dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 8014 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3563 taga ko'pdir.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-dekabr holatiga 33228 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,7 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,7 % savdo, 19,1 % sanoat, 8,8 % qurilish, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,0 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa hamda 25,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.12.2019 yil	
	01.12.2018 yil	01.12.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	26018	33228	127,7	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2037	2566	126,0	7,7
Sanoat	4846	6345	130,9	19,1
Qurilish	2285	2936	128,5	8,8
Savdo	5784	8206	141,9	24,7
Tashish va saqlash	840	1002	119,3	3,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1671	2518	150,7	7,6
Axborot va aloqa	440	529	120,2	1,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	570	690	121,1	2,1
Boshqa turlari	7545	8436	111,8	25,4

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (10049 ta), Urgut (2889 ta), Pastdarg'om (2779 ta) va Samarqand (2379 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (749 ta), Paxtachi (833 ta) hamda Nurobod (958 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 31508 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6726 ta (27,1 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,7 % savdo, 19,1 % sanoat, 8,8 % qurilish, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,1 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa va 25,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9623 ta), Urgut (2836 ta), Pasterg'om (2597 ta) Samarqand (2158 ta) va Ishtixon (1673 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (715 ta), Paxtachi (795 ta) hamda Nurobod (900 ta) tumanlarida esa korxonalarining soni kamligini kuzatish mumkin.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2019-yil yanvar-noyabr oylarida 8014 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'pdir.

**Yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (2225 ta), Pastdarg'om (681 ta), Samarqand (661 ta) va Urgut (654 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (176 ta), Paxtachi (201 ta) hamda Narpay (202 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (2668 ta), sanoat (1895 ta), boshqa faoliyat turlari (808 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (871 ta), qurilish (681 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (607 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (135 ta), axborot va aloqa (156 ta) hamda tashish va saqlash (193 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-dekabr holatiga 25942 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 5654 ta, oilaviy korxonalar - 4300 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 15475 ta, unitar korxonalar - 235 ta, aksiyadorlik jamiyati - 30 ta va boshqalar 248 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**


2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 520 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 129 taga yoki 33,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-dekabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 520 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Samarqand shahri (230 ta), Urgut (47 ta), Jomboy (40 ta) va Samarqand (34 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Narpay (5 ta), Paxtachi (8 ta) hamda Kattaqo'rg'on (9 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 368 tasi qo'shma korxonalar, 152 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar
va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining faollik darajasi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Samarqand viloyati	520	368	152
Samarqand sh.	230	146	84
Kattaqo'rg'on sh.	16	12	4
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	23	21	2
Bulung'ur	21	9	12
Jomboy	40	34	6
Ishtixon	12	6	6
Kattaqo'rg'on	9	8	1
Qo'shrabot	12	4	8
Narpay	5	4	1
Payariq	13	7	6
Pastdarg'om	23	18	5
Paxtachi	8	5	3
Samarqand	34	28	6
Nurobod	10	10	
Urgut	47	43	4
Tayloq	17	13	4

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 153 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahar (50 ta yoki jamidagi ulushi 32,7 %), Jomboy hamda Samarqand (12 ta yoki 7,8 %), Qo'shrabot (11 ta yoki 7,2 %), Pastdarg'om hamda Bulung'ur (10 ta yoki 6,5 %), Kattaqo'rg'on shahar (9 ta yoki 5,9 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Narpay (1 ta yoki 0,6 %), Paxtachi (3 ta yoki 2,0 %), Nurobod, Ishtixon, Urgut va Tayloq (4 ta yoki 2,6 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 30 ta, Turkiya Respublikasi 23 ta, Rossiya Federatsiyasi - 22 ta, Koreya Respublikasi – 12 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida Isroil Davlati, Tojikiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Ozarbayjon

Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (71 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (26 ta), savdo va qurilish (16 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (1 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (2 ta), tashish va saqlashda (4 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (8 ta) tashkil etgan.


2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 25806 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-dekabr holatiga qaraganda 33,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8291 tasi (32,1 %) Samarqand shahri, 2360 tasi (9,1 %) Urgut, 2114 tasi (8,2 %) Pastdarg'om hamda 1871 tasi (7,3 %) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 25806 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 7764 tasi (30,1 %) - savdo, 5975 tasi (23,2 %) - sanoat, 2751 tasi (10,7 %) - qurilish, 2397 tasi (9,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 2261 tasi (8,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 941 tasi (3,6 %) - tashish va saqlash, 549 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash

va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 483 tasi (1,9 %) – axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2685 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni to'g'risida MA'LUMOT

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


birlikda

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	01.12.2019 y.	01.12.2019 y.	2019 yil yanvar-noyabr
Samarqand viloyati	27304	25806	7648
Samarqand sh.	8625	8291	2142
Kattaqo'rg'on sh.	977	925	311
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1070	968	276
Bulung'ur	980	942	274
Jomboy	967	955	345
Ishtixon	1439	1363	482
Kattaqo'rg'on	1226	1137	395
Qo'shrabot	519	487	161
Narpay	803	781	191
Payariq	1470	1282	371
Pastdarg'om	2287	2114	656
Paxtachi	583	560	193
Samarqand	2078	1871	640
Nurobod	738	684	234
Urgut	2407	2360	618
Tayloq	1135	1086	359

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxon va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 7648 ta kichik korxon va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,9 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxon va mikrofirmalar Samarqand shahri (2142 ta), Pstdarg'om (656 ta), Samarqand (640 ta) va Urgut (618 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (161 ta), Narpay (191 ta), Paxtachi (193 ta) hamda Nurobod (234 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2665 ta), sanoatda (1892 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (871 ta), qurilishda (679 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (605 ta) va boshqa turlarida (474 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (113 ta), axborot va aloqada (156 ta) hamda tashish va saqlashda (193 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 4525 tani tashkil etib, ulardan 4300 tasi yoki 95,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 55,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim .

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,7 % yoki 1364 tasi sanoat, 27,5 % yoki 1184 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 23,3 % yoki 1004 tasi savdo, 8,0 % yoki 343 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,9 % yoki 39 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 37 tasi qurilish, 0,7 % yoki 31 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 6,7 % yoki 285 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Samarqand viloyati	2052	100,0
Samarqand sh.	450	21,9
Kattaqo'rg'on sh.	28	1,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	53	2,6
Bulung'ur	79	3,8
Jomboy	126	6,1
Ishtixon	171	8,3
Kattaqo'rg'on	89	4,3
Qo'shrabot	17	0,8
Narpay	63	3,1
Payariq	162	7,9
Pastdarg'om	273	13,3
Paxtachi	10	0,5
Samarqand	216	10,5
Nurobod	16	0,8
Urgut	134	6,6
Tayloq	165	8,1



2019-yil yanvar-noyabr oylarida 2052 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,3 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand shahri (450 ta), Pastdarg'om (273 ta), Samarqand (216 ta) va Ishtixon tumanlari (171 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Paxtachi (10 ta) va Nurobod tumanlarida (16 ta) tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,7 % yoki 650 tasi sanoat, 29,7 % yoki 610 tasi savdo, 26,3 % yoki 540 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,1 % yoki 145 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,6 % yoki 13 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 9 tasi qurilish, 0,2 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 3,4 % yoki 69 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:71-230-85-42 (43)**